

**O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV TEXNOLOGIYALARINING
FUNKSIONAL ASOSLARI**

Mambetaminov Nurlibay Mambetsapayevich – *assistent o'qituvchi*

nurlibaymambetaminov@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ТЕХНОЛОГИИ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА
В ОБУЧЕНИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ**

Мамбетаминов Нурлыбай Мамбетсапаяевич – *ассистент преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**FUNCTIONAL FOUNDATIONS OF AXIOLOGICAL APPROACH TECHNOLOGIES
IN READING EDUCATION**

Mambetaminov Nurlybay Mambetsapayevich – *assistant teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: o'qish savodxonligi, aksiologik yondashuv, qadriyatlar tizimi, ta'lim texnologiyalari, funksional savodxonlik, interpretatsion faoliyat, refleksiv fikrlash, ma'naviy kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik mexanizm.

Rezyume. Mazkur maqolada o'qish savodxonligi ta'limida aksiologik yondashuv texnologiyalarining funksional asoslari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki uning mazmunini qadriy mezonlar asosida anglash, baholash va shaxsiy munosabat bildirish kompetensiyalarini shakllantirish zarurati bilan izohlanadi. Maqolada aksiologik yondashuvning nazariy-metodologik tamoyillari, o'qish savodxonligining kognitiv, kommunikativ va aksiologik komponentlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, qadriyatlarga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari, matn bilan ishlash jarayonida refleksiya, interpretatsiya va baholash faoliyatini tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Aksiologik yondashuvning o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ongli o'qish, tanqidiy fikrlash hamda ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi funksional ahamiyati asoslab berilgan.

Ключевые слова: читательская грамотность, аксиологический подход, система ценностей, образовательные технологии, функциональная грамотность, интерпретационная деятельность, рефлексивное мышление, духовная компетентность, личностно-ориентированное образование, дидактический механизм.

Резюме. В данной статье проводится комплексный анализ функциональных основ технологий аксиологического подхода в обучении читательской грамотности. Актуальность исследования объясняется необходимостью формирования у учащихся компетенций не только чтения и понимания текста, но и понимания его содержания на основе ценностных критериев, оценки и выражения личного отношения в современном образовательном процессе. В статье рассматриваются теоретико-методологические принципы аксиологического подхода, когнитивный, коммуникативный и аксиологический компоненты читательской грамотности во взаимосвязи. Также освещены дидактические возможности ценностно-ориентированных педагогических технологий, механизмы организации рефлексии, интерпретации и оценочной деятельности в процессе работы с текстом.

Key words: reading literacy, axiological approach, value system, educational technologies, functional literacy, interpretative activity, reflexive thinking, spiritual competence, personality-oriented education, didactic mechanism.

Summary. This article provides a comprehensive analysis of the functional foundations of axiological approach technologies in reading literacy education. The relevance of the research is explained by the need to form in students competencies not only for reading and understanding the text, but also for understanding its content based on value criteria, assessment, and expression of personal attitude in the modern educational process. The article examines the theoretical and methodological principles of the axiological approach, the cognitive, communicative, and axiological components of reading literacy in interconnection. The didactic possibilities of value-oriented pedagogical technologies, the mechanisms for organizing reflection, interpretation, and assessment activities in the process of working with text, are also highlighted.

Kirish. Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimiga ham ta'sir o'tkazmasligi mumkin emas. Shunday ekan, "o'qitish va tarbiyalash mexanizmlarining yaxlit tizimini yaratish, iste'dodli, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish davlatimiz oldidagi muhim vazifalardandir".

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning nutqiy savodxonligini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning lingvodidaktik tizimi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Kuzatishlarga qaraganda lingvodidaktik tizim takomili quydagi sub'ektiv shart-sharoitlar bilan chambarchas bog'liq:

- o'quvchilarning fiziologik jihatdan normal rivojlanishi;

- badiiy matnlarni, xususan o'quv matiriallarini o'qib tushunish, tahlil qilish, mazmunini gapirib berish, umumlashma xulosa chiqarish, mutolaaga kuchli ishtiyoq;

- matn mazmunini o'zlashtirishni ta'lim jarayonining asosiy sharti sifatida anglash;

- o'quvchilarda yangi ma'lumotlarga moslashish qobiliyatining mavjudligi;

- tahlil va talqinning uyg'unligi.

Aytish joizki, butun dunyodagi globallashuv jarayoni, mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyoti yoshlardan yuksak darajada intellektual salohiyat, chuqur bilim, imon-e'tiqod, mukammal axloq, siyosiy va huquqiy madaniyat egasi

bo'lishni taqozo etadi. Bu borada nutqiy savodxonlikka erishish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikka erishishda o'quv materiallarini talab darajasida o'zlashtirish, she'rlar, ertaklar, topishmoqlar, maqolalar, tez aytishlar kabi xalq donishmandligi aks etgan matnlar ustida ishlash eng ta'sirchan vositalardandir.

Ta'lim taraqqiyotining hozirgi davrida mediamuhitning takomillashishi ham o'quv materiallardan foydalanishning elektron shakllarini istifoda etishga yo'naltirilmoqda.

Fransuz olimi R.Lapilar va olmon qadriyatshunosi E.Gartmonlar tomonidan ilk bor qo'llangan "aksiologiya" atamasi yunoncha "axio" – qadriyat va "logos" – fan, ta'limot – qadriyatshunoslik ma'nosini anglatadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslarida badiiy matn tahliliga oid ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishga doir o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetensiyasini uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida rivojlantirishning lingvodidaktik tizimini takomillashtirish, savodxonlik ta'limi texnologiyalarini loyihalash ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Muhokama. Ijtimoiy jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi davrida ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish metodologiyasi ta'lim tizimini yangilash, mazmunini insonparvarlashtirish orqali o'quvchilarning ijodiy-didaktik mayllarini uyg'otish ijodiy iqtidorini tarbiyalashga kuch bag'ishlaydi.

"Pedagogik lug'at"da qayd qilinishicha, "ijodiy faoliyat sifat jihatidan yangini yaratishga doir inson yoki jamoaviy faoliyat shakli. Ijodiy faoliyatning zaruriy sharti fikrning egiluvchanligi, tangidiylik, idrok etishning yaxlitligida aks etadi."

Pedagogik faoliyatimiz davomida ayni muammo yuzasidan boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslarida aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash texnologiyasi bo'yicha o'quvchilarga quyidagicha savolnoma tarqatildi.

1. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning lingvodidaktik kompetensiyalarini shakllantirishda qanday texnologiyalardan foydalanasiz?

2. O'quv materiallari ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda qanday usullardan foydalanasiz?

3. O'qish savodxonligi darsligi materiallari ustida ishlashda integrativ yondashuv usullaridan foydalanasizmi?

4. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy ruhda tarbiyalashning pedagogik – psixologik xususiyatlari nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

5. O'qish savodxonligi darslarda o'quvchilarning nutqiy savodxonligini shakllantirishda o'quv-biluv motivatsiyasi qanday o'rin tutadi?

6. Asar personajlari nutqiga qarab o'quvchilarning ma'naviy – axloqiy sifatlarini baholash mumkinmi?

7. O'qish savodxonligi bilan o'quvchilarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasi o'rtasida qanday aloqadorlik bor?

8. O'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirishda fanlararo integratsiya usullaridan foydalanasizmi?

9. Badiiy matn tahlilida individual ta'lim usullaridan foydalanasizmi?

10. O'qish savodxonligi bo'yicha tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quvchilarning nutqiy savodxonligi va

aksiologik ko'nikmalarini baholashda quyidagi baholash mezonlaridan qay birini samarali deb hisoblaysiz?

- o'quvchilarning o'z fikrini ravon ifodalash ko'nikmasi;

- matnni ifodali o'qish ko'nikmasining shakllanganligi;

- asar qahramonlariga munosabat bildirish ko'nikmasi;

- erkin muloqotga kirisha olish ko'nikmasi;

- mustaqil fikrlash ko'nikmasi;

- ijodiy fikrlash ko'nikmasi;

- milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanganligi darajasi;

O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilardan to'g'ri va ravon o'qish ko'nikmalarigina emas, o'qiganlari yuzasidan mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini yozma va og'zaki tarzida to'g'ri ifodalash, so'z, gab va jumla tuzish ko'nikmalarni egallash ham talab etiladi. O'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir ijodiy topshiriqlar, savol-javob usullari bu borada katta qulayliklarga ega. Ayni muammo jahondagi xalqaro baholash dasturlarida kritik, kommunikativ, kreativ, kollegial ko'nikmalari birlashuvidan "4 K" tarzida nomlanmoqda.

"Boshlang'ich ta'limda, – deb yozadi professor M.-xalqaro baholash dasturidan foydalanishning samaradorligi shundaki, xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini qo'llash, fikrlash va muloqat qilish qobiliyatlariga baho beriladi."

Olima o'qish savodxonligi darslarida ko'p qo'llaniladigan o'qish turlarini a) adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish; b) mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish tarzida ikkiga bo'lar ekan, o'qish ko'nikmalarini quyidagicha 4 guruhga bo'lib baholashni tavsiya qiladi:

- matnda berilgan ma'lumotni topish;

- xulosani shakllantirish;

- ma'lumotlarni umumlashtirish;

- matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish.

Mazkur tadqiqotda o'quv topshiriqlari, bahs-munozara va loyiha taqdimotlari funksional savodxonlikning asosi sifatida tog'ri ko'rsatiladi.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'qish savodxonligi bo'yicha xalqaro baholash dasturlarida qo'yilgan talablarga erishish ko'p jihatdan o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan matnlarning badiiy-estetik darajasiga daxldorligini ko'rsatdi.

"Zamonaviy darsliklar, – deb yozadi tadqiqotchi N.Dushanova, – mobilligi va o'quvchida darslikni o'qigan vaqtda "comfort time" taqdim etishi hamda shaxsga yo'naltirilganligi egallagan bilimlarini real vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishi bilan an'anaviy tamoyillar asosida yaratilgan darsliklardan farq qilishi kerak."

Olima mazkur tadqiqot ishida bilim olish, o'qishga, bilishga bo'lgan ehtiyojining shakllanishi, umr bo'yi o'rganish tamoyillariga amal qilish va ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini tog'ri takidlaydi.

Ayni masalada JDPU o'qituvchisi N.Xaitova bildirgan quyidagi fikrlarni ham muammoning yechimiga munosabat deb tushunmoq joiz." Boshlang'ich ta'limda, -deb yozadi u, - o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirishning bilishga qiziqishni intensiv rag'batlantirish o'qitishning innovatsion yo'nalganligini oshirish, funksionallikning o'sishi, emotsional zo'riqishning oldini olish kabi pedagogik shart-sharoitlar bilan bog'liqdir."

Kezi kelganda shuni ham aytish joizki, odatda, o'qish savodxonligi motivatsiyasi ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya tarzida ikkiga bo'linadi. Ichki motivatsiya o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, qiziquvchanlik va o'z-o'zini rivojlantirish hissini tarbiyalashga qaratilsa, boshqalar tomonidan taqdim etilgan topshiriqqa bo'lgan munosabat ifodasi tashqi motivatsiyani tashkil etadi.

Natijalar. Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni o'qish savodxonligiga tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning aksiologik texnologiyasi bo'yicha olib borgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'qish savodxonligi dasturi va darsliklarida aksiologik yondashuv asosida o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tizimli tarzda yo'lga qo'yilmagan.

2. Aksariyat o'quvchilar milliy qadriyatlar xususida berilgan savollarga to'liq javob qaytarish ko'nikmasiga ega emas.

3. O'qish savodxonligi bo'limida o'quvchilarning kitobxonlik faoliyati qat'iy rejalashtirilmagan.

4. O'quvchilar badiiy asarlar matni yuzasidan aksiologik yondashuv asosida mustaqil mulohaza yuritish imkoniga ega emas.

5. O'quvchilarda badiiy matn tahlili va kitobxonlik ko'nikmalari past darajada.

Ushbu pedagogik muammo bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz ta'lim jarayonida o'quvchilarni faollashtiruvchi texnologiyalarni qo'llash ularning milliy qadriyatlarga oid ko'nikmalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda nafaqat mutolaa madaniyati va axloq-odob ko'nikmalarini rivojlantirish, balki vatanparvarlik tuyg'ulari va dunyoqarashini boyitish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga ham mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa. O'qish savodxonligi ta'limida aksiologik yondashuv texnologiyalarini joriy etish o'quv jarayonini mazmunan boyitadi va uni shaxsning ma'naviy-intellektual rivojlanishiga yo'naltiradi. Mazkur yondashuv o'quvchining matni faqat axborot manbayi sifatida emas, balki qadriy mazmunga ega ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qabul qilishini ta'minlaydi. Natijada o'quvchilar matn mazmunini chuqur anglaydi, undagi g'oya va pozitsiyani tahlil qiladi, shaxsiy baho beradi hamda o'zining qadriy munosabatini shakllantiradi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, aksiologik asoslangan ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda tanqidiy va refleksiv tafakkurni rivojlantiradi, kommunikativ faoliyatni faollashtiradi hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Bu esa funksional savodxonlikning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi ta'limini modernizatsiya qilish jarayonida aksiologik yondashuvni metodik jihatdan asoslash va amaliyotga tizimli joriy etish zarur. Chunki mazkur yondashuv o'qish jarayonining nafaqat kognitiv, balki ma'naviy-axloqiy samaradorligini ham ta'minlaydi hamda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy fikrlashdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: «O'zbekiston», 2020.
2. Xakimova M. Maktab kutubxonalarda o'quvchilar mutolaa madaniyatini shakllantirishning tashkiliy – uslubiy asoslari. Ped.fan.fal.doktori avtoreferati. O'zb.dav.san.va mad.instituti. – Toshkent: 2025, 17-b.
3. Pedagogicheskiy slovar. – Moskva: «Akademiya», 2002.
4. Asqarova M.A. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish (PISA va PIRLS misolida). Ped.fan.doktori (DSC). diss. – Chirchiq: 2024.
5. Dushanova N.S. Adabiyot darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish metodikasini takomillashtirish (xalqaro baholash dasturlari misolida).p.f.f.d.diss.Avtoref. – Chirchiq: 2023.
6. Xaitova N.F. Boshlang'ich ta'limida geymifikatsiyadan foydalanish orqali o'quvchilar o'quv-bilish motivatsiyasini rivojlantirish(1-sinflar misolida) p.f.f.d.(PhD) diss.Avtoref. – Chirchiq: 2023.